

KREDIT MAXSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Mikrokredit 300
Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan, shuningdek o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxs.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm
Kredit miqdori	300 mln. so'mgacha
Kredit maqsadi	Tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish uchun.
Kredit muddati	1 oygacha imtiyozli davr bilan, 60 oy muddatgacha
Foiz stavkasi	- Yillik 30%
	Kredit foizlariga boshqaruv qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.
Taqdim etish shakli	Kassa orqali naqd pul yoki ATB “Universal bank” so'm plastik kartasiga o'tkazish yo'li orqali;
Talab etiladigan xujjatlar	- Qarz oluvchining shaxsni tasdiqlovchi xujjat (Biometrik pasport, ID-karta, va x.k); - O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi - Kafilning shaxsni tasdiqlovchi xujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va x.k); - Agar garov taqdim qilinganda garov xujjatlari;
Kredit ta'minoti	* 30 000 000 (o'ttiz million) so'mdan oshmagan miqdorda ajratiladigan kreditlar uchun – kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan uchinchi shaxs kafilligi/sug'urta polisi * 300 000 000 (uch yuz million) so'mgacha bo'lgan miqdorda ajratiladigan kreditlar uchun – Kredit miqdorining 125%dan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan likvidli mol-mulk garovi. * Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.
Kreditning qaytarish tartibi	Mikrokredit va hisoblangan foizlarni to'lash mikroqarz shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet va differentsial to'lov usulida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha shartlar	* Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi * Kafilning o'rtacha oylik daromadining 50% kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun yetarli bo'lishi lozim. * Qarz oluvchi o'rtacha oylik daromadining 50% kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun yetarli bo'lishi lozim. * Garov ta'minoti sifatida turar joy qabul qilinganda, ushbu turar-joyda hech kim doimiy royxatda bo'lmasligi lozim.
----------------------------	--